

STARTAPLARNING IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi,

Abdiualiyeva Gulzada Azatovna

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" yo'nalishi 4-bosqich talabalari

Gmail: makhmudovazokhida@gmail.com,

abdiualievagulzada8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada startaplarning iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Startaplarning mohiyati, xususiyatlari va an'anaviy biznesdan farqlari tahlil qilingan. Startaplarning hayotiylik sikli, moliyalashtirish bosqichlari va strategiyalari batafsil ko'rib chiqilgan. Maqolada startaplarning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularning innovatsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish va iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi yoritilgan. Jahon tajribasi misolida startaplar ekotizimining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, O'zbekistonda startaplar ekotizimining hozirgi holati va istiqbollari o'rganilgan. Maqolada startaplarning zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini va ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini ochib beradi.

Kalit so'zlar: startap, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, moliyalashtirish, ekotizim, vechur fondlari va kraufdfunding, raqobatbardoshlik, texnologik yangiliklar, biznes model, ish o'rnlari yaratish, tadbirkorlik, risklar boshqaruvi, global tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение стартапов в развитии экономики. Анализируются природа, особенности и отличия стартапов от традиционного бизнеса. Подробно рассмотрены жизненный цикл, этапы финансирования и стратегии стартапов. В статье освещены преимущества и недостатки стартапов, а также их вклад в стимулирование инноваций, создание новых рабочих мест и экономический рост. На примере мирового опыта проанализированы тенденции развития стартап-экосистемы, изучено современное состояние и перспективы стартап-экосистемы в Узбекистане. В статье

раскрывается роль стартапов в современной экономике и их влияние на развитие национальной экономики.

Ключевые слова: стартап, инновации, экономическое развитие, финансирование, экосистема, венчурные фонды и краудфандинг, конкурентоспособность, технологические инновации, бизнес-модель, создание рабочих мест, предпринимательство, управление рисками, мировой опыт.

Annotation. This article examines the role and importance of startups in economic development. The essence, and characteristics of startups, and their differences from traditional businesses are analyzed. The startup lifecycle, funding stages, and strategies are discussed in detail. The article highlights the advantages and disadvantages of startups, as well as their contribution to stimulating innovation, creating new jobs, and economic growth. The development trends of the startup ecosystem are analyzed using global experience, and the current state and prospects of the startup ecosystem in Uzbekistan are explored. The article reveals the role of startups in the modern economy and their impact on the development of the national economy.

Keywords: startup, innovation, economic development, financing, ecosystem, venture funds and crowdfunding, competitiveness, technological innovations, business model, job creation, entrepreneurship, risk management, global experience.

Startap – bu yangi tashkil etilgan va tez rivojlanishga mo‘ljallangan biznesdir. Ularning asosiy maqsadi innovatsiyalarni amalga oshirish va bozorda yangi mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etishdir. Startaplarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, startaplar yangi va innovatsion mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqishga intiladi. Bu innovatsiyalar texnologik yangiliklardan tortib, yangi biznes modellarigacha bo‘lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, startap tashkilotchilari qisqa vaqt ichida katta muvaffaqiyatga erishishga harakat qiladi. Startaplarda yuqori darajada risk va noaniqliklar mavjud bo‘lib, ular muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimoli mavjud bo‘lib, ammo muvaffaqiyat qozongan taqdirda katta foyda olish imkoniyatini beradi. Yana boshqa xususiyatlaridan biri moslashuvchanlikdir va cheklangan moliyaga ega bo‘lganliklari uchun ham cheklangan resurslardan samarali foydalanib, startap tashkilotchilarini tejamkor bo‘lishga undaydi.

Startap va an'anaviy biznes o'rtasida bir nechta farqlar mavjud bo'lib, startaplarni innovatsiyalarni amalga oshirishga intilib, tezkor o'sishga harakat qiladi. Va bu turdagi biznes turida yuqori darajada risk va noaniqliklar mavjuddir va vechur kapital, angel investorlar va kraufdanding kabi moliyalashtirish manbalaridan foydalanadi. An'anaviy biznesda esa nisbatan past risk bo'ladi va barqaror va doimiy o'sisni maqsad qilib, mijozlarni saqlab qolishga harakat qiladi. Bu turdagи biznes vakillari bank kreditlari, o'z kapitali va boshqa barqaror moliyalashtirish manbalariga egadir.

Startaplarning hayotiylik sikli bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, ularning birinchi bosqichi tushuncha va tadqiqot bosqichi deb ataladi. Bu bosqichda startap tashkilotchilari o'z g'oyalarini aniqlaydi, tadqiq qiladi va o'z mahsulot yoki xizmatining konsepsiyasini ishlab chiqadi va boshlang'ich mahsulotlar sinovdan o'tkaziladi. Ikkinci bosqich – startapni tashkil etish bosqichi bo'lib, rasmiy korxona tashkil etilib, dastlabki jamoa yig'iladi va biznes reja ishlab chiqiladi. Shuningdek, bu bosqichda moliyalashtirish manbalarini izlash va jalb qilish davri hisoblanadi. Uchinchi bosqich, mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga chiqarish bosqichi bo'lib, mahsulot yoki xizmatning yakuniy versiyasi ishlab chiqariladi va boozrga chiqariladi. Mijozlar jalb qilinib, bozor o'r ganiladi. To'rtinchи bosqich – o'sish va kengayish bosqichidir. Bu davrda startap o'z o'rnini bozorda topib, tezkor o'sishga erishadi va yangi bozorlar va mijozlar jalb qilib, mahsulot va xizmatlar assortimenti kengaytiriladi. Beshinchi bosqich – barqarorlik va muvaffaqiyat bosqichidir. Startap bu bosqichda barqaror daromad va foya kletiradi va bozorga o'mashib oladi. Kompaniya kengayish va qo'shimcha innovatsiyalarni amalga oshirishda davom etadi. Oxirgi bosqichda esa kompaniya o'z aksiyalarini ommaviy chiqarishi orqali ommaviylashish bilan birgalikda yirik kompaniya tomonidan sotib olinishi yoki mustaqil kompaniya sifatida rivojlanishda davom etishi mumkin. Startaplarning hayot sikli davomida ular ko'plab muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ammo to'g'ri yondashuv va strategiyalar orqali katta muvaffaqiyatga erishish imkoniyati mavjuddir.


Startaplarni moliyalashtirishning bir nechta bosqichlari bo'lib, startapning o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Urug'lik bosqichi startapning dastlabki moliyalashtirish bosqichi bo'lib, tadbirkorlar o'z g'oyasini amalga oshirish va mahsulot

yaratish uchun mablag‘ jalb qiladilar. Moliyalashtirish manbalariga Angel investorlar, urug‘lik vechur fondlari va kraudfanding platformalari misol bo‘ladi. Bu moliyalashtirish bosqichining maqsadi mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish, dastlabki bozor tadqiqotlari va jamoani shakllantirish uchun yo‘naltiradi. Keyingi bosqich A seriyasi bosqichidir. Bu startapning birinchi yirik moliyalashtirish raundi bo‘lib, mijozlarni jalb qilish va mahsulot yoki xizmatni bozorga chiqarish uchun mablag‘ jalb qiladi. Moliyalashtirish manbalari sifatida bu bosqichda vechur fondlari va strategik investorlardan foydalanadi. B seriyasi bosqichida startapning o‘sishini tezlashtirish uchun zarur bo‘lgan moliyalashtirish raundi bo‘lib, bu bosqichda kompaniya kengayish va bozorga chuqur kirish uchun qo‘sishma mablag‘ jalb qiladi. Moliyalashtirish manbalari vechur fondlari, strategik investorlar va ba’zan xususiy kapital fondlardan jalb qilinadi. C seriyasi va keyingi bosqichlar startapning yiriklashish va xalqaro bozorga kirishi uchun zarur bo‘lgan moliyalashtirish roundlari hisoblanib, kompaniya barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Bu bosqichlarda xususiy kapital fondlari, strategik investorlar, aksiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladi.

Startaplar uchun moliyaviy strategiyalar mavjud bo‘lib, diversifikatsiya, bosqichma-bosqich moliyalashtirish, investorlar bilan hamkorliklar qilish, moliyaviy rejalar, proqnozlar, barqarorlik va risklarni bosqarish orqali amalga oshirishlari mumkin.

Shuningdek, startaplar zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat yangi texnologiyalar yaratish, balki iqtisodiy o‘sish va barqarorlikka ham katta hissa qo‘sadi. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish startaplarning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni yaratish orqali iqtisodiyotni rivojlantiradi. Startaplar orqali yangi ish o‘rinlarining yaratilishi ham iqtisodiyotni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sadi. Raqobatbardoshlikni ham oshishiga yordam berish bilan birgalikda, mahsulotlar va xizmatlarni takomillashishiga va iste’molchilarga ko‘proq imkoniyatlarni taqdim etadi.

Startaplarning moliyaviy holatidan kelib chiqib ham turlarga bo‘linadi. (1-rasm).



1-rasm. Startaplarning moliyaviy holatidan kelib chiqib, yakkashoxlar shaklida baholanishi.

Startap kompaniyaning qiymati 1mlrd dollardan oshganda Unicorn startapi deb nomlanadi. Bu atama 2013-yilda vechur kapitalisti Aylin Li tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, muvaffaqiyatli kompaniyalarning statistik ma’lumotlarini tasvirlash uchun afsonaviy mavjudotni tanlagan. 2020-yilda TechCrunch ma’lumotlariga ko‘ra esa 452ta Unicorn kompaniyalar dunyoda mavjud bo‘lib, ularning 196tasi AQShda, 165 tasi Xitoyda joylashgan bo‘lsa, Hindiston, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda qolgan qismi tashkil etilgandir. Bu kompaniyalarga misol qilib, Ant Financial, ByteDance, DiDi, Uber, Xiaomi va Airbnbni aytish mumkin. Agar kompaniyaning qiymati 10 mldr dollardan oshsa, kompaniya Decacorn deb nomlanadi. Hectocorn atamasini esa kompaniyaning qiymati 100 mlrd dollardan oshganda ishlataladi. Kompaniyalarni bunday nomlar bilan nomlashdan asosiy maqsad investorlarni jalb qilish, daromadni oshirish kabi ramziy ma’noda qaraladi.

Startaplarning bir nechta turlari mavjud:

- Texnologiya startaplari.** Texnologik startaplar yangi texnologiyalar yoki dasturiy yechimlarni yaratishga qaratilgan. Ular yangi texnologiyalardan foydalangan holda hozirgi tarmoqlarni o‘zgartirishga yoki yangi turdagи bozorlarni tashkil qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bu startaplarning texnologiyalariga AI, VR, blokcheyn va IoT ustida

ishlaydigan kompaniyalar misol bo‘ladi. Bu turdagи startaplarning o‘ziga xos xususiyatlari tez o‘sish qobiliyatiga ega bo‘lib, kuchli raqobat, texnologiyalarni tez yangilash va resurslarni samarali boshqarishni ta’minlash kiradi. Bu startaplari kompaniyalariga SpaceX, Tesla, OpenSpace va OpenAI kompaniyalarini misol qilish mumkin.

2. Ijtimoiy startaplari. Ijtimoiy startaplar biznes maqsadlarini ijobiy ijtimoiy yoki atrof-muhitga ta’sir qilish missiyasi bilan birlashtiradi. Ular qashshoqlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash yoki barqarorlik kabi ijtimoiy muammolar ustida ishlaydilar va shu bilan birga pul ishlashadi. Ba’zi keng tarqalgan misollar orasida adolatli savdo, qayta tiklanadigan energiya yoki ijtimoiy innovatsiyalarga yo‘naltirilgan kompaniyalar kiradi. Lush, TOMS, Ben & Jerry’s kabi kompaniyalar bu startap turiga misoldir.

3. Elektron tijorat startaplari. Ushbu startaplar asosan onlayn chakana savdo, elektron platformalar orqali mahsulot yoki xizmatlarni sotish bilan shug‘ullanadi. Ular butun dunyo bo‘ylab mijozlarga erishish uchun internet va raqamli marketing strategiyalaridan foydalanadilar. Elektron tijorat startaplarda internetga ulangan istalgan joydan 24/7 xarid qilish qulayligi, individual xizmatlar kabi o‘ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Elektron tijorat startaplariga

4. Fintech startaplari. Fintech startaplari an’anaviy moliyaviy xizmatlarga raqamli yechimlarni taklif qilib, moliyaviy sektorda innovatsiyalar kiritadi. Ular to‘lovlar, kreditlash, boylikni boshqarish yoku kriptovalyutalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, onlayn to‘lov platformalari, robot-maslahatchilar yoki peer-to-peer kreditlash platformalari kiradi. Stripe, Coinflip, Coinbase, Newfront kabi kompaniyalar aynan shu startap turiga misoldir.

5. Healthtech startaplari. Healthtech startaplari sog‘liqni saqlash sohasida innovatsiyalar qilish, innovatsion xizmatlarni taqdim etish uchun sog‘liqni saqlash va texnologiyalarni birlashtiradi. Texnologik yutuqlari orqali bemorlarni parvarish qilish, diagnostika, masofaviy monitoring va sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilashga qaratilgan. Masalan, teletibbiyot platformalari, taqiladigan sog‘liqni saqlash qurilmaalari va ma’lumotlarni tahlil qilish kompaniyalari kiradi. Healthtech startaplariga misollar qilib,

Babylon Health, Fitbit, Zocdoc, Tempus kabi kompaniyalrni bu startaplarga misol qilish mumkin.

6. SaaS startaplari. SaaS startaplari obuna modeli orqali kiradigan bulutga asoslangan dasturiy ta'minot ilovalarini taklif qiladi. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari(CRM) tizimlari, boshqaruv platformalari bu turdag'i startaplarning texnologiyalari hisoblanadi. SaaS startaplarini o'ziga xos xususiyatlariga bulutga asoslangan yetkazib berish tizimi, markazlashtirilgan boshqaruv va yangilanishlar, moslashuvchanlik kiradi. SaaS startaplari kompaniyalariga Scribe, Slack, Zendesk, Trello, Zoom platformasini misol qilish mumkin.

7. Biotexnologik startaplari. Biotexnologik startaplari yangi mahsulotlar yoki jarayonlarni yaratish uchun tirik organizmlar yoki biologik jarayonlardan foydalanishni o'z ichiga olgan biotexnologiya sohasida innovatsion yechimlarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Ular ko'pincha sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi yoki ekologik barqarorlik sohasidagi yutuqlar ustida ishlaydi. Bunga gen terapiyasi, genetik modefikatsiyalangan ekinlar(GMO) yoki bioyoqilg'ilarni tadqiq qiluvchi kompaniyalar misol bo'ladi. Bu turdag'i startaplarda ilmiy tajribalar, tadqiqot va ishlanmalar olib borilishi bilan qolgan turlardan ajralib turadi. Biotexnologik startaplarning duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga esa ilmiy va texnologik to'siqlar, ko'p sarmoya talab qilishi kabi muammolar kiradi. Modern, Monte Rosa Therapeutics, Indigo, Editas Medicine kompaniyalari bu turdag'i startaplarning yaqqol misolidir.

8. Ta'lim startaplari. Ta'lim startaplari innovatsion ta'lim yechimlari va platformalarni taklif qilish orqalita'lim sohasini o'zgartirishni maqsad qiladi. Bu texnologiyalarga onlayn ta'lim platformalari, ta'lim o'yinlari va boshqa turdag'i platformalarni misol tarzida keltirish mumkin. Bu startaplarda foydalanish imkoniyati va moslashuvchanlik, individual ta'lim va raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lsa, mavjud tizimlar bilan integratsiya qilishda, moliyalashtirishda, maxfiylik va xavfsizlikda bir nechta muammolarga duch kelishi mumkin. Coursera, Duolingo, Udemy, BetterUp, MasterClass kabi platformalarni misol qilish mumkin. 2023-yilda eng yaxshi startap turlariga AI, Robototexnika va avtomatlashtirish, kiberxavfsizlik, Fintech, Biotexnologiyalar, yarimo'tkazchilar kirgan.

Mamlakatimizda ham startap ekotizimini rivojlantirish maqsadida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi qarori orqali mamlakatda vechur kapital ekotizimini rivojlantirish maqsadida “UzVC” Milliy vechur fondining faoliyati yo‘lga qo‘yilgani buning tasdig‘i hisoblanadi. Bundan tashqari, “UzVC” fondining faoliyati vechur ekotizimining me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, xususiy sektor va hukumat o‘rtasida bog‘lovchi vosita vazifasini bajarish, biznes-inkubatsiya va akseleratsiya tizimini rivojlantirish, vechur moliyalashtirishda moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi vazifalarni bajarmoqda.

Shu bilan birgalikda, startap ekotizimini rivojlantirish maqsadida xorijiy davlatlar bilan shartnomalar imzolanib kelinmoqda. Biznes inkubatorlarini ham rag‘batlantirish maqsadida keng qamrovli ishlar qilinmoqda. 2022-yil birinchi yarim yilligiga ko‘ra jam 12,9 mlrd so‘mlik 16ta startap loyihalari moliyalashtirilgan bo‘lib, 2021-yilga qaraganda 177,7 foizga ko‘p startaplar loyihalari qo‘llab-quvvatlanyotganligini tushunish mumkin. Iqtidorli va iste’dodli xotin-qizlar, ayollar va yosh olimalarning innovatsion faoliyati natijalari va tashabbuslarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish hamda salohiyatli yoshlarni ilmfanga keng jalb etish maqsadida «Bo‘lajak olim» tanlovi doirasida «Ayollar biznesi uchun birinchi qadam» tanloviga e’lon berildi. Mazkur tanlovni tashkil etish uchun Ilmfanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan 10 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan. Mahalliy startaplarimizga misol tariqasida Uzum Market platformasini, Workly, Billz, Repost.uz, Eduon, Beepul keltirish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, startaplar zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynash bilan birgalikda, ular innovatsiyalarning manbasidir. Ish o‘rinlarini yaratishda va iqtisodiy o‘sishda ham o‘z hissasini namoyon etadi. Startaplar turli sohalarda faoliyat yuritish bilan birgalikda, texnologik taraqqiyotga va ijtimoiy muammolarni hal qilishga hissa qo‘shmoqda. Mamlakatimizda ham startap ekotizmni rivojlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlar olib borilmoqda, bu esa mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Start-ups as drivers of economic growth / Marrat Ressin
2. How do innovative internet tech startups attract venture capital financing?

2023, Journal of Management and Organization

3. <https://www.investopedia.com/terms/s/startup.asp> What a Startup Is and What's Involved in Getting One Off the Ground

4. <https://www.linkedin.com/pulse/7-stages-startup-life-cycle-hardik-shah-csm-> The 7 Stages of the Startup Life Cycle

5. <https://www.bdc.ca/en/articles-tools/start-buy-business/start-business/start-up-financing-sources> 8 sources of start-up financing

6. <https://www.linkedin.com/pulse/what-unicorn-decacorn-hectocorn-mincorn-soonicorn-startups-hossain-1n4bf> What are Unicorn, Decacorn, Hectocorn, Mincorn, Soonicorn Startups?

7. <https://scribehow.com/library/types-of-startups> 8 Types of Startups That Are Changing the World

8. <https://it-park.uz/uz/itpark/news/o-zbekiston-startap-ekotizimining-sifat-evolyutsiyasi>

9. <https://mininnovation.uz/ru/news/post-805>